



Received: August 13, 2025
Accepted: September 21, 2025
Available online: September 25, 2025

Sanobar To'laganova

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
Toshkent, O'zbekiston

Sanobar Tulaganova

Doctor of Sciences in Philology (DSc), Professor
Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: s.tulaganova70@gmail.com
ORCID iD: 0009-0005-2734-8925

MILLIY ISLOHOTLAR MUALLIMI

*(Mahmudxo'ja Behbudiyning Turkiston maorifini
rivojlantirish yo'lidagi faoliyatiga nazar)*

THE TEACHER OF NATIONAL REFORMS

*(A Look at Mahmudkhoja Behbudi's Activities in
the Development of Education in Turkistan)*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Turkiston tarixida jadid ma'rifatchilik harakatining shakllanishi, uning ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar bilan uzviy bog'liqligi ilmiy tahlil qilinadi. Asarda Mahmudxo'ja Behbudiy shaxsiyati, uning milliy islohot konsepsiyasi, ta'lim tizimini yangilash, milliy matbuot va teatrni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Behbudiy ilgari surgan "usuli jadid" maktablari dasturi, darsliklari va pedagogik qarashlari asosida milliy uyg'onish g'oyalari tahlil etiladi. Maqolada, shuningdek, rus mustamlakachiligi davrida diniy va dunyoviy ta'lim tizimlari o'rtasidagi kurash, jadidlarning millatni ruhan va ma'nan uyg'otish yo'lidagi sa'y-harakatlari ochib beriladi. Behbudiy faoliyati milliy o'zlikni anglash, ilm-fan va ma'rifat orqali millatni yuksaltirish g'oyasining asosiy manbai sifatida talqin etiladi. Maqola jadidchilik tarixini yangi ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etadi.

Kalit so'zlar: milliy islohot konsepsiyasi, ma'rifatchilik, Turkistonda musulmonchilik, xalq birligi, milliy g'oya, targ'ibot, jadid, islohot.

ABSTRACT

This article provides a scholarly analysis of the formation of the Jadid educational and enlightenment movement in the history of Turkistan, emphasizing its close interrelation with social, political, and cultural factors. It highlights the personality of Mahmudkhoja Behbudi, his concept of national reform, and his significant role in modernizing the education system, as well as in developing the national press and theatre. The ideas of national awakening are examined on the basis of the curriculum, textbooks, and pedagogical views promoted by Behbudi within the framework of the "usul-i jadid" (new method) schools. The article also explores the struggle between religious and secular education systems during the period of Russian colonial rule and reveals the efforts of the Jadids to awaken the nation spiritually and intellectually. Behbudi's activities are interpreted as a key source of the idea of national self-awareness and the advancement of the nation through knowledge and enlightenment. The study approaches the history of the Jadid movement from a new academic perspective.

Key words: concept of national reform, enlightenment, Islam in Turkistan, national unity, national idea, propaganda, Jadid, reform.

KIRISH

Turkiston tarixida muhim rol o'ynagan jadid ma'rifatchilik harakati tarixiy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy qonuniyat tufayli yuzaga keldi. Jahon tarixidagi inqilobiy

o'zgarishlar, Turkiya va Erondagi siyosiy ko'tarilishlar, o'z navbatida, Turkistonga ham ta'sir o'tkazmasdan qolmadi.

Dunyoda yuz berayotgan siyosiy-iqtisodiy inqiroz va inqilobiy harakatlar yurtimizda inqilobiy islohotlar yo'liga o'tishida tashqi ta'sir bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, mamlakat ichkarisidagi siyosiy vaziyat va zulmning ortib ketishi, siyosiy tanazzul oqibatida sharoitning pishib yetilishini ichki ta'sir deb ko'rsatish mumkin.

Turkiston erkidan ayrilib, Vatan taqdiri qo'ldan ketayotgan og'ir pallada Yaratganning mehri shifoati bilan xalq orasidan millatparvar ulkan shaxsiyatlar yetishib chiqadi. Ulug' shaxsiyatlarning paydo bo'lishi Turkistonda milliy uyg'onish harakatining yuzaga chiqishiga zamin hozirladi. Milliy birlik g'oyasi ostida birlashgan jadidlar Vatan ozodligi yo'lidagi kurashni muqaddas burch deb bildilar.

Inqilobiy to'liqlar zahirida yuzaga kelgan yangilanish ehtiyoji ulkan shaxsiyatlarni tarix sahnasida bunyod qildi. Shunday ulug' shaxsiyatlardan biri Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlaridir. Qomusiy ilmlar sohibi M.Behbudiy Turkistonda jadidchilik harakatining asosi bo'lgan milliy uyg'onish g'oyasining dasturini ishlab chiqdi. Milliy davlatchilikni shakllantirish, milliy armiya, milliy til va adabiyot, milliy drama, milliy maktablarni yaratish masalasi dasturning asosiy muammosi sanaladi. Diniy va milliy o'zlikni saqlab qolish tuyg'usi jadid ma'rifatparvarlarining ham bosh maqsadi bo'lgan.

ASOSIY QISM

M.Behbudiy ana'naviy ta'lim tizimini isloh qilish, darslik, qo'llanmalar yaratish, ilm-fan va huquqiy masalalarni ochiqlovchi o'tkir ruhda publitsistik chiqishlari bilan ham nafaqat Turkiston, balki Markaziy Osiyo, Turkiya, Eron, Qrim kabi mamlakatlarda ham mashhur bo'lgan. U yangi o'zbek adabiyoti va, xususan, milliy teatr tamal toshini qo'ygan ijodkor hisoblanadi.

Turkiston xalqining ulug' olim-ulamosi M.Behbudiy amaliy faoliyati bilan madaniyat va maorif arbobi, milliy huquqshunoslik sarboni, birinchi o'zbek dramaturgiyasi tamal toshini qo'ygan, milliy matbuot shakllanishida ham muhim rol o'ynagan ziyolilardandir.

Ko'pqirrali olim Turkistonda islohotlar o'tkazishda bosh loyihachi ustozlardan biri sifatida faoliyat yuritdi. Behbudiy maktab ta'limini isloh qilishni dastlab darsliklar yaratish va o'qitish tizimini yangilash maqsadida maxsus milliy islohot loyihasini ishlab chiqadi. Milliy islohot loyihasi qanday va uning tuzilish tarkibi nimalarga asoslandi, degan savol bilan manbalarga yuzlanamiz.

Behbudiyning milliy islohot konsepsiyasi doirasidagi faoliyatida bir qator masalalar alohida yo'nalish sifatida ko'zga tashlanadi:

1. Milliy g'oyani ishlab chiqish.
2. Milliy matbuotni shakllantirish.
3. Milliy ta'lim tizimini shakllantirish.
4. Milliy teatrni shakllantirish.
5. Milliy qonunchilik masalalarini yoritish.
6. Milliy g'oyani adabiyot orqali targ'ib qilish ishlarini olib borish.

Mahmudxo'ja Behbudiy taklif qilgan milliy islohot konsepsiyasi mohiyatida mustaqillik g'oyalari yotadi. Bu g'oyalarning ikki qanotini musulmonchilik va Turkiston xalqlari birligida ko'radi. Behbudiyning milliy islohot konsepsiyasini ayni shu ikki jihatsiz tasavvur qilish mumkin emas. Ma'rifiy, iqtisodiy, siyosiy hurlikka u milliy islohot konsepsiyasi orqali yetishish mumkinligini o'z faoliyati bilan isbotlab berdi.

Har qanday jamiyatda ta'lim va tarbiya millat istiqbolining hal qiluvchi jabhasi sanalgan. Jahoniy o'zgarishlar va mamlakatning sifat darajasi ta'lim infratuzilmasi bilan bog'liq. Shu bois islohotlar dastlab ta'lim tizimida o'tkaziladi. Rus bosqinchilarining g'arazli maqsadini anglab yetgan jadidlar dastlab maktab va maorif masalasiga jiddiy e'tibor qaratishadi. Mustamlakachilar yerli aholini o'ziga itoatda saqlash va g'oyalarini amalga oshirish, ruslashtirish niyatida maorifga alohida yondashuvni ma'qul bildi.

Turkistonda asr boshida ana'nadagi diniy ta'lim shakli asosiy o'quv tizimi sifatida saqlangan. Mustamlakachilar ta'limni qo'lga olishni ko'zlaganda millatni tarixidan uzib tashlash va ona tilidan uzoqlashtirib, yagona til – ruslashtirishni nazarda tutgan. Diniy ta'limni cheklash orqali rus-tuzem maktablarini ko'paytirish, millatni diniy, milliy qadriyatlardan uzoqlashtirish maqsadida mahalliy ta'limga har tarafdin zarba berishgan. Rus bosqinchilari Turkistonda ta'limni qo'lga olish orqali millatni ma'naviy inqirozga yetaklash maqsadini g'oya sifatida ilgari surishadi. Mahalliy ta'lim tizimini yo'q qilish va ruslashtirish siyosatini amalga oshirish uchun ish yuritish mexanizmini barpo qilishadi.

Doktor Boymirza Hayitning "Turkiston Rossiya va Xitoy oralig'ida (XIX asr ikkinchi yarmidan – XX asr so'ngiga qadar)" nomli kitobida bu jarayon chuqur o'rganilgan. 1875-yilda Turkistondagi diniy maktablar to'liq rus amaldorlari nazoratiga olinishi yuzasidan qonun ishlab chiqiladi. 1885-yili bosh voliy Rozenbax diniy maktablarni nazorat qilishni qattiq talab qilib raport yozadi. 1890-yili V.P. Nalivkin Turkiston islom o'quv yurtlari taftishchisi etib tayinlanadi. Andijon qo'zg'olonidan keyin, 1899-yili bosh voliy Duxovskiy diniy o'quv yurtlariga qarshi harakat boshlaydi. "Islom birligini parchalamoq asosiy burchimizdir", degan g'oyani ilgari suradi. O'sha paytda Turkistonda 4000dan ortiq islom maktablari rus mahkamalari yordamisiz, sof milliy sarmoya bilan kun ko'rardi. 1886-yildan boshlab asosiy e'tibor xalqni ruslashtirish uchun yo'naltirilgan "Rus mahalliy (tuzem) maktablari" nomidagi yangi o'quv dargohlari tashkil etildi. Mahalliy aholi bolalarini bu maktablarga bermaydi. Bir yil davomida atigi 650 nafar musulmon farzandlari tahsil ko'rganligi manbalarda qayd etilgan. Asta-sekinlik bilan ana'naviy islomiy ta'lim cheklanib, rus-o'zbek, qozoq maktablarining soni ortib bordi. Turkistonda hokimiyatni to'liq, batamom qo'lga kiritish uchun musulmonlarni bo'lib tashlash rejasini bosqichma-bochqich amalga oshirishdi. Ziyolilar va din arboblari ruslarning boshqaruv siyosatiga qarshi imkoniyat darajasida harakat qilishni o'rgandilar.

Ma'lumotlarga ko'ra, Toshkentda (1879) seminarialarga mahalliy turk bolalarini qabul qilish boshlangani aytiladi. "Turkiston viloyatining gazetini"da muharrirlik qilgan Ostroumov shunday yozadi: "Turkiston qurol kuchi bilan ruslar

qo'liga o'tdi, endi navbat uning ruhini egallash kerak" [Hayit, 2023; 240].

Bosqinchilar turkiylarning ma'naviyatiga egalik qilish yo'lidagi eng katta to'siq sifatida islom dini ahkomlarini ko'rardi. Zulm va kuch bilan tasarruf etilgan diyorning ruhini egallab olish umidida diniy ulamolardan keragidan ortiq darajada foydalanishdi. Shu bois diniy e'tiqodga zarba berish, bid'at xurofotni kuchaytirish, qozilarni saylashda poraxo'rlikni ko'paytirish, madrasalarda shariatga qarshi axloqsizlikni keng yoyish orqali maqsadini bosqichma-bosqich olib borishdi. Barcha jabhalarda millatni ruhan va ma'nan mahv etishning mexanizmi ishlab chiqildi. Ammo bu oson kechmadi. Yurtning chinakam fidoyilari mustamlaka rejimiga qarshi o'zlarining dasturlarini ishlab chiqishdi. M.Behbudiy hazratlarining o'zi butun boshli mahv etish rejimiga qarshi milliy islohot g'oyasi bilan chiqdi. Aytish mumkinki, butun boshli mustamlaka siyosatiga o'zining yuksak iqtidori bilan qarshi tura oldi. Bilim va yuksak iqtidori bilan qarshi rejani ishlab chiqdi. Behbudiy Turkiston ma'naviyati va axloqi borasida jiddiy izlanishlarini e'lon qilgan. Yirik siyosiy arbob F.Xo'jayev ta'kidlaganidek, siyosiy-ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlari orasida unga teng keladigan kishi bo'lmagan.

Rus hokimiyati va islom dunyosidagi zamonaviy ta'lim-tarbiya borasidagi izlanishlar, ayniqsa, turk qavmlari orasidagi o'zgarishlar Turkistonda yangilanish uchun muhim omil bo'lib xizmat qildi. Millat ziyolilari ta'limni isloh qilish yo'lida amaliy harakatlarni boshlab yuborishadi. Turkistondagi rus hokimiyatiga qarshi milliy harakatda islom dini va shariat talablari birlamchi ahamiyat kasb etdi. Musulmonlar ruslarni "kofir" deb bilar, ularga yaqinlashishni istamas edi. Din ulamolari ruslar bilan hamkorlikdan saqlanishni buyurar edi. Turkistonlik turklarda islom dini shu darajada ildiz otgan ediki, millat va din tushunchasi aynan bir ma'noga teng edi. Musulmonlik har ikki tushunchani o'zida mujassam etardi.

Behbudiy hazratlari Muhammad (s.a.v.)ning sunnatlarini amalga oshirish, musulmon madaniyatini yuksaltirish yo'lida jidd-u jahd bilan harakat qildi. Millat va din qayg'usida salohiyatini ishga solgan olim maorifda jiddiy islohotlarni olib bordi. "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur". Olim millatning o'zligini dunyoda tan oldirishning birdan-bir yo'li, bu – ilm deb belgilaydi. Behbudiy yirik diniy olim va katta tajribaga ega qozi sifatida ko'p yillar faoliyat yuritgan. Olim diniy ilm bilan cheklanmay, dunyoviy ilmlarni o'zlashtirish g'oyasini ilgari suradi. M.Behbudiy qizg'in, kurashlarga boy sermahsul faoliyati bilan jadidlarning "otasi"ga aylandi. Dunyo ko'rgan, basirati ochiq, ilm-ma'rifatli arbob, islom huquqlarini yaxshi bilgan ulamo dunyoviy va din ilmini bir butunlikda o'rganish masalasini kun tartibiga qo'ydi.

Uning birorta publitsistik maqolasi, birorta asari yo'qki, millatning ehtiyojidan kelib chiqib yozilmagan bo'lsa. Barcha asarlarida millat va milliyatning ruhi hukmronidir. Jumladan, aynan millat atamasi qo'llanilgan: "Millat vazifasi" (1906), "Ehtiyoji millat" (1913), "Millatlar qanday taraqqiy etarlar" (1913), "Millatning boshchisi tullob ul-kiromg'a" (1913), "Millatga murojaat" (1913), "Millat jaridasi" (1913, "Oyina" 10-son), "Millatni kim isloh etar" (Ibrat, "Oyina", 1914, 12-son) kabi maqolalari alohida ajralib turadi.

Behbudiylarning usuli jadida yo'nalishida yozilgan maqolalaridan: "Samarqand maktabi haqida", "Jug'rofiya ilmi", "Samarqand usuli jadid maktabi xususida", "Samarqand usuli jadid maktabini imtihoni xususida", "Samarqand maktabi haqida", "Turkistonda maktab lisoni", "Buxoroda usuli jadida", "Yangi maktablar masalasi to'g'risida tavsif", "Maktablar haqida", "Maktablarga ruqsat olish usuli", "O'quvchilarga yordam kerak" va boshqalar shular jumlasidandir.

Usuli jadid maktab darsliklarini dunyoviy ilm talablari asosida yozadi:

1. "Risolayi jug'rofiyayi umroniy" (1905).
2. "Risolayi jug'rofiyai Rusiy" (1905).
3. "Risolayi asbobi savod alifboyi maktabi islomiya" (1905).
4. "Madxali jug'rofiyayi umroniy" (1907).
5. "Muxtasari jug'rofiyayi Rusiy" (1907).
6. "Muntahabi ba xabari ihyon umumiy" (1907).
7. "Tafakkur ul-atfol" ("Hikoyat va axloq" risolasi) (1908).
8. "Kitobat ul-atfol" (1908).
9. "Amaliyoti islom" (1908).
10. "Kitobi muntahabi jug'rofiyayi umumiy va namunayi jug'rofiya" (1908).
11. "Tarixi islom" (1909).
12. "Tatbiqoti diniya va fanniya" (1908).
13. "Alifboyi maktabi islomiya" (forscha) (1908) [Behbudiylar, 2018; 281].

Behbudiylar ustoz muallim sifatida usuli jadida maktabning rivoji uchun bor imkoniyatlarini ishga soldi.

Olim 1898-1899-yillarda buxorolik do'sti Xo'ja Baqo hamrohligida haj amalini bajarish uchun safarga chiqadi. Turkiyaning Istanbul shahridan Misrga, so'ng Hijozga o'tadi. Misrdagi "Al-Azhar" madrasasi, Istanbul matbuoti, maktab ta'limi, o'quv qurollarigacha e'tibor qaratadi. O'zi bilmagan yangi dunyo madaniyati, ma'rifatidan hayratlanadi, o'z millati uchun yangi yo'l zarurligini anglaydi. Ulug' haj ibodati bahonasida dunyo kezan ulug' olim millat maktablarining ahvolini bilar, ko'rganlari bilan solishtirar, yangiliklarni yurtiga tatbiq etish yo'llarini mulohaza qilib ko'rardi. Bir muddat qozixonada faoliyat yuritgach, 1903-1904-yillarda Rusiyaga safar qiladi. "Ulfat", "At-tilmiz" gazetalarining noshiri hamda muharriri buyuk olim Abdurashid qozi Ibrohimov, Muso Jorulloh Begiyev bilan tanishib, olamshumul yangiliklardan xabar topadi. 1908-yili I. Gaspirali bilan bo'lgan uchrashuv "hayotini yangi o'zanlar" tomon soladi. Ikkilanishlar ortga chekinib, fikrda qa'tiylashadi: *"Kafkaz, Istanbul, Misr, Hijoz, Arabiston shaharlaridagi eski va yangi maktab va madrasalarni o'zina muddat bo'lsa ham ko'rib bir oz tajriba hosil qildim. Yangi tasnif bo'lgan fanniy, falsafiy, ilmiy kitob va risolalardan bir oz mutolaa etdim. Va ushbu sana ichkari Rusiyaning ba'zi shahar va imoratini ko'rib, Turkistonning ba'zi joylarini yurib keldim. Rusiyadagi musulmon maktab program tartiblarini ko'zdan kechirib mamlakat va shariatga tatbiq qilib yurgizib turibmiz"* [Behbudiylar, 1908]. Behbudiylarning o'zi taraqqiy etgan shaharlardagi maktablarning rejalari asosida mustaqil bo'lgan yangi o'quv rejasini ishlab chiqdi. Maqola ilmiy-uslubiy tarzda yozilgan bo'lib, usuli jadida maktabining o'quv tizimi ochib beriladi:

“...Zamona har kuni yangilashur. Yangi ilm va yangi fikrlar va fununi zamoniyaning darbar (o'zida saqlagan, tashuvchi) qilgan odamlarni talab qilur”.

“Kelar zamon uchun hozirlanaylik, o'tgan zamon uchun emas”.

Behbudiyning usuli jadida maktabining tahsili ikki qismdan iborat bo'lib, har bir bosqich to'rt yildan o'qitilgan edi.

Birinchi bosqichning dastlabki yilida forscha va arabcha alifbo asosida yozuv o'rgatilgan. O'quvchilar xotirasini va fikrlash qobiliyatini mustahkamlash yo'lida hisob darslari o'yin shaklida tashkil etilgan. Shu bilan birga, Qur'oni Karimdagi kichik suralar yod oldirilib, namoz tartibi va qoidalar o'rgatilgan.

Ikkinchi yildan haftiyak bilan birga “Imon va e'tiqod” darslari o'tilgan. Arabiy, turkiy va forsiy matnlar o'rganilgan.

Uchinchi yildan Qur'oni Karim, islom odobi, tajvid qoidalar, forsiy va turkiy g'azallar, til, tarix, islom tarixi, jug'rofiya kabi darslardan saboq berilgan.

Behbudiy ishlab chiqqan to'rt yillik ta'limning dastlabki bosqichi shunday shaklda bo'lgan. Mana shu to'rt yilda usuli jadida maktabining birinchi bosqichi yakunlanardi. O'quvchi bu davrda turkiy va forsiy tilda savodli, tajvidni o'zlashtirgan, zamonaviy tarix, hisob ilmidan ham puxta tayyorgarligi bo'lgan. U shunday yozgan edi: *“Ishonmagan kishi kelsun, to'rt yil o'qigan bolalar borki, yuqoridagidan ziyoda nimirsa bilur va ko'rsaturmiz”.*

Ulug' muallim qat'iy ishonch bilan o'zi taklif qilgan maktab o'quv dasturida to'liq ishonch bilan qaragan va sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan natijalarni oshkor qilgan. Keyingi bosqich ham to'rt yildan iborat bo'lib, o'rta ta'lim deb nomlangan. Dastlab arab tili, jug'rofiya, shafaqiya (astronomiya), fors tilidan turkiyga tarjima, tarix, islom tarixi, Sa'diyning “Guliston”i, fors va turkiy tili o'qitilgan. Keyingi yilda arab tili grammatikasi va shifoxiya (salomatlik), tarix, islom tarixi, axloq darsi, fors va turkiy tili, hisob darslari o'tilgan.

Uchinchi yildan boshlab rus tili ham qo'shilgan. Ish yuritish hujjatlari, ariza va ma'lumotlarni o'rganishgan. To'rtinchi yilda arab tili, rus tili amaliy darsi, turkiy ta'lim (pedagogika), adabiyot namunalari, salomatlik, maktab va hayot, tabiat darslaridan saboq olganlar.

Shunday qilib sakkiz yillik o'quv dasturi yakunlangan, bola til va tarixni, hujjat yuritishni, rus tilini va Qur'on Karim ilmini puxta o'zlashtirgan.

Behbudiy taklif qilgan sakkiz yillik maktabni tugatgan o'quvchilar turkiy va forsiy tilda erkin gaplasha oladigan hamda ilmiy maqolalar yoza olish malakasiga ham ega bo'ladi. Demak, bu ta'lim shaklida tanqidiy tafakkur, zehniyat, aqliy va hissiy sezimlarni ishga solish asnosida tahliliy nuqtayi nazar ham shakllantirilgan. Behbudiyning vaziyatni anglay olish va yechim topish salohiyati shunchalar rivojlangan ediki, ruslar bilan munosabatga kirishishda huquqiy ongini shakllantirish, huquqiy savodxonlik, haqini tanish kabi jihatlarga urg'u bergan. Maktab bolalarida ayni shu sifatlarni takomillashtirishni zarur deb bilgan. O'quvchilarning lisoniy tafakkuriga, lug'aviy zaxirasini boyitish, notiqlik va arboblilik sa'natini egallashiga diqqat qaratilgan. Ish yuritish darslari, xat yozish qoidalar, ariza va shahodatnoma, ishonch xati kabi rasmiy yozuvlar bilan birga, bolaning ota-onasiga yoki otaning

o'g'liga, tolibning ustozga xat yozib murojaat qilishi ham batafsil o'rgatilgan. Maktabning ijobiy tomonlaridan biri – o'quvchining keyingi hayoti ham e'tiborga olingan. Maktabni tugatgan tolib ilm olishni ixtiyor etsa, mazkur maktab unga tavsiyanoma bergan. Tavsiyanoma bilan Misr, Turkiya kabi davlatlarga borib, o'quv yurtida o'qishni davom ettirish mumkin bo'lgan.

“Kitobat ut-atfol” kitobi Behbudiy tomonidan XX asr boshlarida usuli jadida maktablariga ish yuritish qoidalarini o'rganish maqsadida yaratilgan yangi usuldagi uslubiy qo'llanma hisoblanadi. U XX asr boshida Turkiston o'lkasi davlat boshqaruvida va hujjat yuritish sohasida islohotlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan tuzilgan.

Behbudiy o'lka farzandlarini har doim o'zligini anglashga chaqirdi. U xalqqa qarata: *“Behuda sarflarga ketadigan xarajatlarni ilmga sarflamoq kerakdur. Ilm bizning omilimiz, idealimiz, murodimiz, tilagimiz va muddaomizdir. Hozir barcha kuchni ilm olishga qaratmasak zabun bo'lurmiz”* [Behbudiy, 1913; 234], – deydi.

Behbudiy “Ehtiyoji millat” maqolasida ta'kidlaganidek, **“maktabimiz, do'konimiz, korxonamiz, madrasamiz va har nimarsamizni zamoncha islohi lozimdur”** [Behbudiy, 2018a; 386]. Ushbu fikrlarda milliy islohotning eng asosiy qirralari urg'ulangan:

1. **Maktab** ta'limi orqali Turkistonda yangi davlat tizimini shakllantirish, savodxonlikni oshirish, milliy tafakkurni yuksaltirish masalalarini qamrab oladi.

2. **Do'konimiz** – Vatanimizni iqtisodiy barkamolligini ta'minlash, moliyaviy tizimni shakllantirish, milliy sarmoyani kuchaytirish, xalq hayoti farovonligini oshirish, turmush tarzi darajasini yaxshilash kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

3. **Korxonamiz** – milliy sanoatni shakllantirish, tizimlashtirish, markazlashtirish, milliy kadrlarni yetishtirish, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, kichik korxonalarni yagona loyiha asosida shakllantirish ko'zda tutilgan.

4. **Madrasamiz** – millat ma'naviy hayotini, milliy, diniy qadriyatlarni avaylash, bid'at jaholatga qarshi kurashish, ma'rifatni ulug'lash, diniy bilimlarni o'qitish, ayol-qizlarni savodli qilish masalasi nazarda tutilgan. Millat onalarini tarbiyalash orqali milliy islohotlarga erishish masalasi kun tartibiga qo'yilganiga ishora qilingan. Islohotlar davrida eng katta mas'uliyat diniy ulamo vakillariga yuklatilgan.

5. Navbatdagi bosqichda **“har nimarsamizni”** isloh qilish zarurati aytiladi. Sog'liqni saqlash, milliy armiya, huquqiy savodxonlik kabi muhim masalalar hisobga olingan. Olim asosiy faoliyatini qozixonada olib borgani uchun mahalliy aholi orasida jaholatning nechog'li ildiz otganini bilardi.

Behbudiy ulug' olim va avliyolar merosini chuqur o'rgangan, yetarli diniy bilimlarni egallagan, davr ziddiyatlarini to'g'ri baholay olgan. Dunyo ko'rgan, sayohatlar qilgan va yo'l yurgan millatparvar Turkistondagi vaziyatni “tashqaridan” kuzatishga, muqoyasa qilishga imkon topdi. Qiyoslab o'rganishlar natijasida mavjud sharoitdan qoniqmaslik hissi va mazlumlik alami olimda yo'l qidirish, najot topish umidini uyg'otadi.

Behbudiy **“musulmonlar karvoni ortda qoldi”** degan fikrdan juda kuyunadi, o'z holiga achinadi. Millat quyidagi vazifalarni bajarsa, murodga yetishi aytiladi:

1. Barcha turkiy xalqlar – *“sart, no'g'oy, tatar, turkman, taranchi, dungani”*lar

bir-birlariga qarindoshdirlar. Ularning hammasi birlashib, hamjihat bo'lmog'i lozim.

2. Diniy ulamolar *“xalqni amri ma'ruf qilub, nahyi anil-munkar qilub, xalqimizni fasod axloqdan va yomon ishlardan, shar'an harom bo'lg'on fe'llardan man qilub, ilm va ma'rifatga va kasb va korga tashviq qilsun kerak. Millat rivoji uchun ulug'-kichik hamma yakdil va yakvujud o'lub, musulmon qarindoshlikni fikr va mulohaza qilib, dini islom ne'matini g'animat bilub, har umurda bir-birimizga qo'l suzub, kundan-kunga o'z oramizda ulfat va muhabbatni orttirmakdur”*, deb ilm yo'lida birlikka da'vat etadi.

3. Yevropa mamlakatlari – “fransuzlar, inglizlar, amriqonlar” taraqqiy etgani, ularning bu yo'lda ko'p mablag' sarf etgani, jon fido qilgani aytiladi. Shuningdek, ular ta'lim va tarbiya bobida ham ilgari ketgani, qolaversa, bugungi kamchiliklari to'g'risida o'zlari tanqid ruhida matbuotlarda chiqishlar qilayotganligi misollar va qiyoslashlar orqali tushuntiriladi. Turkiston millatini ham shunga chorlaydi.

4. Islomda ilm va tahsil olmoq musulmonlarga farz. Muallif millatga qarata: o'qib, o'rganib ilmga ega bo'lib, islohotga borish zarur, deydi. Ko'rinadiki, ilm farz bo'lishi bilan bir qatorda, hazrat har bir fuqaroning ilm bobida yo'qotgan kuni uning haqqi yo'qolishidir, deb ta'rifiyladi.

5. Boshqa millatlarning yosh bolalari maktablarda o'qiydilar, bizning millat bolalari *“hammollikda va gadoylikda”* yuradilar.

6. *“Boshqa millatlar ulamolariga tobe', bizni ulamo bil'aks avomga tobedur. Buning oxiri xarobdur”*. *“Iloho! Bu aziz va faol bandalarning hurmatig'a bizg'a basirat ber! Eshitar quloq, anglatar aql ber! Oh, u ezgular qanday ekanlar? Biz na holdamiz? Yer yuzinda sulh va salohi (egulik) umumiy ato ayla, insonlarga insoniyat ber! Zulimlarni qahr et, mahv bo'lsin zulm, yashasun adolat va haqqoniyat”* [Behbudiy, 2006; 116-117].

7. Bilingki, millat bugun maktab va madrasada islohot qilmasa, millatda o'zgarish bo'lmasa, millatning diyonati barbod bo'ladi, uning javobi va mas'uliyati o'zidan keyingilarga qoladi.

8. “Jamiyati xayriya”, “Nashri maorif”, kutubxonalar, fondlar, to'garaklar, jurnallar, gazetalar, nashriyotlar tashkil etmoq kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo'ja Behbudiyning milliy islohot bo'yicha qarashlari ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan edi. Mamlakatning, millatning ahvolidan kelib chiqib, islohotlarning muhimlik darajasiga qarab, ular amalga oshirishning algoritmini teran his qilar edi. Barcha islohotlar negizida ta'lim turishi, ta'limni takomillashtirish natijasida “yangi turkistonlik”larni tarbiyalash, ular orqali esa Turkiston zaminini qaytadan bunyod etish buyuk ulamoning bosh maqsadi edi. Bu maqsadning badalini Behbudiy o'z qoni va joni bilan to'lashi mumkinligini ham yaxshi tushungan. Biroq millat va Vatan g'ami uni yo'lidan qaytishga imkon bermagan. Bugun O'zbekistonning XXI asrdagi taraqqiyot yo'li haqida o'ylar ekanmiz, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi jadidlarning milliy taraqqiyot haqidagi g'oyalariga suyanmog'imiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Behbudiy, M. (1908-yil 20-fevral). Samarqand usuli jadid maktabi haqinda. *Turkiston viloyatining gazetisi*, 30.
2. Behbudiy, M. (1913). A'molimiz yoyinki murodimiz. "*Oyina*" jurnali, 6-7, 130–132, 154–156.
3. Behbudiy, M. (2006). *Tanlangan asarlar* (B.Qosimov (To'pl.), 3-n.). Toshkent: Ma'naviyat.
4. Behbudiy, M. (2018). *Tanlangan asarlar* (B.Karimov (Muhr.), 2 jildli, 1-j.). Toshkent: Akademnashr.
5. Behbudiy, M. (2018). *Tanlangan asarlar* (B.Karimov (Muhr.), 2 jildli, 2-j.). Toshkent: Akademnashr.
6. Hayit, B. (2023). *Turkiston Rossiya va Xitoy oralig'ida* (I.Baxtiyor (Tarj.)). Toshkent: Yangi asr avlodi.

REFERENCES

1. Behbudi, M. (1908, February 20). About the Samarkand new-method school. *Newspaper of the Turkistan Region*, 30.
2. Behbudi, M. (1913). Our aims or our intentions. *Journal of 'Oyina'*, 6-7, 130–132, 154–156.
3. Behbudi, M. (2006). *Selected works* (B.Qosimov (Comp.), 3rd ed.). Tashkent: Spirituality.
4. Behbudi, M. (2018). *Selected works* (B.Karimov (Ed.), Vol. 1, 2 vols.). Tashkent: Akademnashr.
5. Behbudi, M. (2018). *Selected works* (B.Karimov (Ed.), Vol. 2, 2 vols.). Tashkent: Akademnashr.
6. Hayit, B. (2023). *Turkistan between Russia and China* (I.Bakhtiyor (Transl.)). Tashkent: New Century Generation.